



## O'zbekistonning Germaniya davlati bilan hamkorlik aloqalari 2017-2024-yillar

**Yusupov Axrorjon Qurbonovich**

Qo'qon Universiteti Ijtimoiy  
fanlar kafedrası v.b.dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston va Germaniya munosabatlarining mustaqillikdan so'ng iqtisodiy, siyosiy, savdo va madaniy gumanitar aloqalari buguni rivoji haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Germaniya, tashrif, Shavkat Mirziyoyev, Olof Shols, diplomatik, munosabatlar.

**Аннотация:** В статье рассматривается развитие экономических, политических, торговых и культурно-гуманитарных связей между Узбекистаном и Германией за годы независимости.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Германия, визит, Шавкат Мирзиёев, Улоф Шольц, дипломатические, отношения.

**Abstract:** This article discusses the development of economic, political, trade and cultural-humanitarian relations between Uzbekistan and Germany since independence.

**Keywords:** Uzbekistan, Germany, visit, Shavkat Mirziyoyev, Olof Scholz, diplomatic, relations.

### **Kirish.**

O'zbekiston va Germaniya munosabatlarining buguni rivoji o'zaro hurmat va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni yana-da muvaffaqiyatli



rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand universitetining Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyttingen shaharlaridagi universitetlar bilan hamkorligi samarali rivojlanayotir. O'zbekiston Respublikasida nemis millatiga mansub 25 mingga yaqin kishi yashaydi.<sup>1</sup> 2021-yil mart oyida O'zbekiston prezidenti va Germaniya kansleri o'rtasida videokonferensiya shaklidagi muloqot bo'lib o'tdi.<sup>2</sup> O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 20-22 yanvar kunlari Germaniyaga bo'lib o'tgan birinchi rasmiy tashrifi, shuningdek, Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning o'sha yili 27-29 may kunlari O'zbekistonga javob tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojiga kuchli turtki berdi.<sup>3</sup> O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 28-30-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Germaniyada bo'ldi. Jahon iqtisodiyotining turli sohalari va jabhalarida yetakchi o'rinlarni egallagan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri - Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi istiqbolli hamda ishonchli savdo-iqtisodiy hamkori hisoblanadi. O'zbekistonning har tomonlama modernizatsiya qilinishi Germaniya ishbilarmon doiralarining iqtisodiy va sarmoyaviy sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qiziqishi ortishiga xizmat qilayapti. Bugungi kunda mamlakatimizda nemis sarmoyasi ishtirokidagi 200 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston bozorida Germaniyaning yetakchi ishlab chiqaruvchilari – «Deutsche Kabel», "Knauf", "Claas", "Papenburg" va «Falk Porsche» muhim o'ringa ega. "Siemens", "BASF", «Thyssen Group», «Roland Berger», «Adidas Group» kabi o'z sohalaridagi yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. «Deutsche Bank», "Sparkassenstiftung", "Commerzbank" va "Landesbank Baden-Württemberg" bilan moliyaviy sohadagi aloqalar rivojlanib bormoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi so'nggi besh yil ichida 1,5 barobardan ortiq, 2018-yildagi 771,9 million dollardan 2022-yilda 1 milliard 150

<sup>1</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>2</sup> „[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Germaniya\\_munosabatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari)

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Germaniya\\_munosabatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari)



million AQSH dollarga oshdi. Va bu o'sish tendensiyasi davom etmoqda. Joriy yilning yanvar-iyul oylarida tomonlar salkam 610 million dollarlik savdo ayirboshlashni amalga oshirdi. 2015-yilda tashkil etilgan Germaniya-O'zbekiston ishbiarmonlar kengashi (GO'IK) savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirishga katta hissa qo'shmoqda. Kengash o'ziga xos xususiyatga ega, chunki u O'zbekistondagi yagona G2B platformasi hisoblanadi. GO'IK o'z faoliyati davomida Germaniya ishbiarmon doiralari va O'zbekiston hukumati o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqot uchun eng muhim platformaga aylandi. Savdo va sarmoya bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhi ham savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirishga har tomonlama yordam bermoqda. Davlatimiz rahbarining may oyidagi Germaniyaga tashrifi chog'ida bo'lib o'tgan ishbiarmonlik tadbirlari natijasida umumiy qiymati 9 milliard yevrodan ortiq bo'lgan savdo shartnomalari hamda sarmoyaviy- texnologik bitimlar imzolandi. 2024 yilning sentyabr oyida Germaniya ishbiarmon doiralari delegatsiyasi tarkibiga Savdo-sanoat palatasi a'zolari, shuningdek, «Falk Porsche Technik GmbH», «Kabel AG» (DKG), «Schneider Group», «DB Engineering & Consulting GmbH», «GP Günter Papenburg AG» va boshqa kompaniyalar rahbarlari hamda vakillari O'zbekistonga tashrif buyurib, vazirlik va idoralarda samarali muzokaralar o'tkazdi. Mamlakatimiz korxonalari va tadbirkorlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Germaniya ishbiarmonlar missiyasining ushbu tashrifi ikki davlatning savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishdan o'zaro manfaatdorligini yana bir bor tasdiqladi. Germaniyada ikki tomonlama munosabatlar faollashgani fonida O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va sayyohlik salohiyatiga qiziqish ham ortib borayotir. 2023 yil may oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga tashrifi doirasida davlatimiz rahbari germaniyalik hamkasbi bilan birgalikda Berlindagi Jeyms Simon galereyasida tashkil etilgan «O'zbekiston arxeologik xazinalari – Aleksandr Makedonskiydan Kushonlar davrigacha» ko'rgazmasining ochilishida ishtirok etdi. Ko'rgazma 2024-yil 14-yanvarga qadar davom



etadi va uning faoliyati davomida Germaniya jamoatchiligi hamda mamlakat mehmonlarini o'zbek xalqining boy tarixi, betakror madaniyati va an'analari bilan tanishtiruvchi turli madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda. Ko'rgazmadan O'zbekistondagi 9 ta muzey kolleksiyasidan 285 ta tarixiy ashyolar namoyish etilyapti. O'z navbatida, O'zbekistonda ham Germaniya, uning madaniyati, tili, ta'lim va biznes imkoniyatlariga qiziqish ortib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda qariyb 300 ming maktab o'quvchilari Gyote, Shiller va Kant tilini o'rganmoqda. 24 ta maktabda nemis tili chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatilyapti. Ulardan 6 tasi, ya'ni Toshkent, Samarqand, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon va Buxoro shaharlaridagi maktablar nemis tili diplomini berish huquqiga ega. Shuningdek, 4000 dan ortiq o'zbekistonlik aspirant va doktorantlar Germaniyaning turli universitetlarida tahsil olmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda Gyote instituti, Germaniya Xalq universitetlari assotsiatsiyasining Xalqaro hamkorlik instituti, Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasining vakolatxonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular bilan bir qatorda yurtimizda Konrad Adenauer, Hanns-Zaydel va Friedrich Ebert jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi vakolatxonalari ochilgan. Hududlararo hamkorlik doirasida Toshkent va Berlin, Buxoro va Bonn shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan. Samarali madaniy-ma'rifiy almashinuvlar, barqaror rivojlanish loyihalari amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, Germaniya Orolbo'yi mintaqasi uchun maqsadli jamg'armani qo'llab-quvvatlashga katta hissa qo'shmoqda. Jumladan, joriy yilning mart oyida jamg'arma faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kelishuv imzolangan bo'lib, unda Germaniya hukumati tomonidan og'ir ekologik vaziyatning Orolbo'yi aholisiga salbiy ta'sirini kamaytirishga maqsadli yordam ko'rsatish uchun 700 ming dollar ajratish ko'zda tutilgan. Germaniyaning hissasi milliy va mahalliy hamkorlar, BMT tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ilmiy doiralarning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Orolbo'yida qo'shma dasturlar va moliyaviy ko'mak tufayli oziq-ovqat, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, sog'liqni



saqlash muammolarini hal etish imkonini berayapti. Bugungi kunda O'zbekistonda 5 mingga yaqin etnik nemis millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Ularga o'z milliy an'analari va madaniyatini asrab-avaylash bo'yicha barcha sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda nemis millatiga mansub fuqarolar nafaqat o'zbek jamiyatining ajralmas qismi, balki ikki davlatni bog'lovchi ko'prik sifatida ham ko'riladi. Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Germaniya munosabatlarining buguni rivoji o'zaro hurmat va manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni yana-da muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shubhasiz, 2023 yil 29 sentyabrda Berlinda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya yetakchilarining oliy darajadagi birinchi sammiti o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish hamda ikki mamlakat xalqlari manfaati uchun an'anaviy o'zaro manfaatli va do'stona O'zbekiston-Germaniya munosabatlarini mustahkamlash uchun yangi istiqbollarni ochishga xizmat qiladi. 2024 yilning 15 sentyabrda Germaniya kansleri Olaf Sholzning Markaziy Osiyoga, Qozog'iston va O'zbekistonga tashrifi bo'ldi. Buni ko'p qirrali O'zbekiston-Germaniya munosabatlarini yanada rivojlantirishga alohida e'tiboringiz va Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarni qo'llab-quvvatlashingizning dalolati sifatida qabul qilamiz, - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Davlatimiz rahbari mehmonlarni Germaniya Federativ Respublikasi tashkil etilganining 75 yilligi va yaqinlashib kelayotgan Germaniya birligi kuni bilan samimiy muborakbod etdi. Muzokaralar davomida ko'p qirrali O'zbekiston-Germaniya munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. O'tgan yili Berlinda o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy turtki bergani ta'kidlandi. Barcha darajalardagi aloqalar faollashdi. O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard yevrodan oshdi. Germaniya biznesi bilan hamkorlik kengaymoqda - yil boshidan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotiga Germaniya kompaniyalarining 800 million yevrolik investitsiyalari kiritildi.



### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Germaniya\\_munosabatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Germaniya_munosabatlari)
3. BS Kodirov, AQ Yusupov - Oriental Art and Culture, 2023 O'ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IMKONIYATLARI.
4. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Khahramonjon o'g'li. "ETHNIC COMPOSITION OF THE BRONZE AGE POPULATION OF UZBEKISTAN." International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists" Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"(Poland). Vol. 3. 2023.
5. Yusupov Axrorjon Qurbonovich Философия и право YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI 2023 98-1016.
6. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).
7. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Kakharamonjon o'g'li. "DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3.5 (2023): 183-187.
8. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Theoretical and methodological approaches to increase the political culture of citizens." Journal of Advanced Zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.
9. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI." IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI 3.11 (2023): 42-46.





10. AQ Yusupov, BS Kodirov YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLARNING IJTIMOY FAOLLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI Oriental Art and Culture 4 (5), 33-36
11. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "The Role of National Identity in Increasing the Socio-political Activity of the Youth of Uzbekistan." JournalNX: 177-179.
12. Курбанович, Юсупов Ахроржон. "Теоретико-методологические подходы к повышению политической культуры граждан." Журнал перспективной зоологии 44 (2023): S2.
13. ЮА Курбанович - Теоретико-методологические подходы к повышению политической культуры граждан.Журнал перспективной зоологии, 2023
14. Юсупов, Ахрор Курбанович. "РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА." Электронная конференция «Глобус. Vol. 38. 2021.
15. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon va Hasanov Muxtorjon Qaxaramonjon o‘g‘li. “QO‘QON XONI VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI DIPLOMATİK VA SAVDO-IQTISODIY ALOQALAR”. Fan va texnologiyaning ko‘p tarmoqli jurnali 3.5 (2023): 183-187.
16. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "Teoretiko-metodologicheskie podkhody k povysheniyu politicheskoy kultury grajdan". Perspektiv zoologiya jurnali 44 (2023): S2.
17. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. “O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda milliy o‘zlikni anglashning o‘rni”. JournalNX : 177-179.
18. Yusupov, Axrorjon. “Fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning madaniy-ma’naviy-mafkuraviy omillari”. O‘zbekiston Milliy universiteti yangiliklari 1 (2022).



19. Юсупов, Ахроржон, and Муродхон Латифходжаев. "O'ZBEKISTONNING GERMANIYA DAVLATI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI 2017-2024-YILLAR." Interpretation and researches 7 (53) (2025).
20. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIDA MILLIY-SIYOSIY MENTALITETNING O'RNI." QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 13 (2024): 223-224.
21. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI." QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 11 (2024): 81-83.
22. Yusupov, Axrorjon. "RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR VA MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZARO UYG'UNLIK NIMALARDA AKS ETADI." University Research Base (2024): 728-732.
23. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI." Философия и право 25.2 (2023): 98-101.
24. Yusupov, Axrorjon Qurbonovich, and Barhayotjon Sobirjanovich Kodirov. "YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI." Oriental Art and Culture 4.5 (2023): 33-36.
25. Kodirov, Barhayotjon Sobirjanovich, and Axrorjon Qurbonovich Yusupov. "O'ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IMKONIYATLARI." Oriental Art and Culture 4.5 (2023): 340-344.
26. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as" ethnos" and" nation" as social unit."." International Journal of Advanced Science and Technology 29.5 (2020): 1936-1944.





27. Юсупов, Ахроржон. "Cultural, spiritual and ideological factors in increasing the social activity of citizens in society." O'zbekiston milliy universiteti xabarlari 1.5 (2022).
28. Юсупов, Ахрор. "Сущность концепции политической активности граждан." Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. 2020.
29. Юсупов, А. К. "Роль гражданской активности в демократизации общества." Вопросы политологии 10.9 (2020): 2709-2716.
30. Yusupov, Ahror Kurbanovich. "The role of national identity in increasing the socio-political activity of the youth of Uzbekistan." E-Conference Globe. 2021.
31. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).
32. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "The Role of National Identity in Increasing the Socio-political Activity of the Youth of Uzbekistan." JournalNX: 177-179.